

MAVZU. NEYROPSIXOLOGIYA

1. [B – 1 ball] Neyronlar o'rtasida axborot uzatishda ishtirok etadigan kimyoviy moddalar nima deyiladi?

- A) Neyrotransmitterlar
- B) Gormonlar
- C) Retseptorlar
- D) Sinapslar

Manba: Akhutina T.V., Pylaeva N.M. *Bolalarda neyropsixologik diagnostika va korreksiya.* – Toshkent: Ilm Ziya, 2019.

2. [B – 1 ball] Psixologiya fanining neyropsixologiya yo'nalishi asosan qaysi masalani o'rganadi?

- A) Miya tuzilmalari va psixik jarayonlar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni tahlil qiladi
- B) Shaxsning faqat ijtimoiy xulq-atvorini o'rganadi
- C) Tarbiyaviy jarayonlarda o'quvchining faolligini baholaydi
- D) Ruhiiy zo'riqishning hissiy ko'rinishlarini tavsiflaydi

Manba: Luriya A.R. *Oliy psixik funksiyalar va ularning buzilishi.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

Qo'llash 2 ball

3. [Q – 2 ball].Guruhdagi bola vazifani bajarish paytida tez chalg'iydi, bir joyda uzoq o'tira olmaydi, doim harakatda. Psixolog bu holatda qanday xulosa beradi?

- A) Bolada diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik belgilari mavjud
- B) Bolaning motivatsiyasi past
- C) Bola ijtimoiy muloqotdan chetda qolgan
- D) Bola faqat o'yin orqali o'rganishni xohlaydi

Manba: Raximova M., To'xtayeva D. *Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va uni diagnostika qilish.* – Toshkent: Ilm Ziya, 2021.

4. [Q – 2 ball] Bola so'zlarni to'liq aytolmaydi, jummalarni tuzishda qiynaladi. Psixolog bu holatda qanday yo'l tutishi kerak?

- A) Nutqni rivojlantiruvchi mashqlar va o'yinlar qo'llaydi
- B) Faqat ota-onalarga topshiriq beradi
- C) Bolani guruhdan vaqtincha ajratadi
- D) Faqat eshituvni tekshirish bilan chegaralanadi

Manba: Akhutina T.V., Pylaeva N.M. *Bolalarda neyropsixologik diagnostika va korreksiya.* – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.

5. [Q – 2 ball] Bola o'yin davomida doimo o'rtoqlarini turtadi, g'azabini nazorat qila olmaydi. Psixologning to'g'ri yondashuvi qanday bo'lishi kerak?

- A) Emotsiyalarni boshqarishga o'rgatuvchi mashqlarni o'tkazish
- B) Bolani intizomiy jazolash
- C) Bolani ota-onasidan ajratish
- D) Faqat suhbat o'tkazish

Manba: Lebedinskiy V.V. *Bolalar neyropsixologiyasi asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

6. [Q – 2 ball] Bola chizish mashg'ulotida shakllarni to'g'ri ajrata olmaydi, doirani notekis chizadi. Psixologning eng to'g'ri harakati qanday bo'lishi kerak?

- A) Shakl va fazoviy idrokni rivojlantiruvchi o'yinlar tashkil etadi
- B) Mashg'ulotni to'xtatadi
- C) Bolaga faqat uy vazifasi beradi
- D) Boshqa bolalarga topshiradi

Manba: Zokirova D. *Psixologik-pedagogik diagnostika.* – Toshkent: Universitet, 2018.

7. [Q – 2 ball] Bola ko'z bilan aloqa qilmaydi, o'yinlarga qiziqmaydi, bir xil harakatlarni qayta-qayta bajaradi. Psixolog qanday xulosa chiqara oladi?

- A) Autizm spektr buzilishi ehtimoli mavjud *
- B) Diqqat yetishmovchiligi
- C) Nutq rivojlanishida kechikish
- D) Oddiy injiqlik

Manba: Traugott N.N. *Bolalarda nutq va kognitiv rivojlanish.* – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2016.

8. [Q – 2 ball] Bola she'rni tez yodlaydi, lekin bir necha kundan so'ng unutadi. Bu holatda psixolog qanday xulosaga keladi?

- A) Bolada mexanik xotira ustun, mantiqiy xotira zaif
- B) Bolaning diqqat jarayoni kuchli
- C) Bolaning eshituv xotirasi yuqori
- D) Bolaning motivatsiyasi past

Manba: Abdullayeva N.S. *Maktabgacha yosh psixologiyasi.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

Mantiqiy 3 ball

9. [M – 3 ball] Guruhdagi bola mashg'ulot vaqtida tez charchaydi, diqqatni uzoq ushlay olmaydi, ammo o'yin vaqtida faol va tashabbuskor bo'ladi. Tarbiyachilar uni "o'jarlik" yoki "intizomsizlik" deb baholashmoqda. Psixolog esa bolaning kuzatuv kartasini o'rganib, u motor faoliyat orqali yaxshiroq o'rganishini aniqladi.

Psixolog bu holatda qanday xulosaga keladi va qanday yo'l tutishi kerak?

A) Bola o'yin faoliyati orqali yaxshiroq o'rganadi, shuning uchun korreksion mashg'ulotlar harakatli va o'yinga asoslangan bo'lishi zarur

B) Bola charchoq sabab mashg'ulotlarga qatnashmasligi kerak

C) Tarbiyachi faqat og'zaki topshiriqlar orqali ishlashi kerak

D) Bola passiv bo'lgani uchun jamoaviy o'yinlardan chetlashtiriladi

Manba: Raximova M., To'xtayeva D. *Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va uni diagnostika qilish.* – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.

10. [M – 3 ball] Guruhdagi bola nutqni tushunishda qiynaladi, lekin rasm chizish, konstruktor yig'ish va musiqaga mos harakatlarda juda faol. Tarbiyachilar uni "sokin va befarq" deb hisoblashadi. Psixolog bolaning faoliyatini tahlil qilib, unda vizual va eshituv sezgi kanallari kuchliroq rivojlanganini aniqlaydi.

Psixologning bu vaziyatdagi to'g'ri yondashuvi qanday bo'lishi kerak?

A) Mashg'ulotlarda musiqiy, rasmi va harakatli ko'rgazmali vositalarni ko'proq qo'llash, nutqni bilvosita faoliyat orqali rivojlantirish

B) Bolaning musiqiy faoliyatini vaqtincha cheklash

C) Bolaga faqat eshituv mashqlarini berish

D) Bolani ijtimoiy faoliyatdan vaqtincha ajratish

Manba: Akhutina T.V., Pylaeva N.M. *Bolalarda neyropsixologik diagnostika va korreksiya.* – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.